

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA YANGI BOSQICH: XALQCHILLIK VA KASBIY TAYYORGARLIK UYG‘UNLIGI

Kurbanov Mansur Narbutaevich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası boshlig‘i v.b., podpolkovnik

Annotatsiya. Maqolada 2016-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida amalga oshirilgan islohotlarning huquqiy mazmuni, jamoat xavfsizligini ta‘minlash, aholi bilan hamkorlikni kuchaytirish va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishga ta‘sir tahlil qilingan. Normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar asosida xalqchil professional faoliyatning zamonaviy talablari, xizmat qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligi, kasbiy kompetensiyalarni baholash hamda ta‘lim bilan amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalalari yoritilgan. Hozirgi bosqichdagi asosiy muammolar aniqlanib, normativ-o‘quv auditini joriy etish, kompetensiyaga asoslangan baholashni takomillashtirish, bitiruvchilar faoliyatini monitoring qilish va ilmiy ishlanmalarni amaliyot bilan bog‘lash bo‘yicha takliflar asoslantirilgan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, xalqchilik, kasbiy tayyorgarlik, jamoat xavfsizligi, kasbiy kompetensiya, xizmat qarori, protsessual adolat, aholi bilan hamkorlik, huquqiy sifat, ta‘sirni baholash.

НОВЫЙ ЭТАП В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ: СОЧЕТАНИЕ НАРОДНОСТИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. В статье анализируются правовое содержание реформ органов внутренних дел Республики Узбекистан в 2016–2026 годах, их влияние на обеспечение общественной безопасности, развитие взаимодействия с населением и совершенствование профессиональной подготовки кадров. На основе нормативно-правовых актов и научных источников раскрываются современные требования к деятельности органов внутренних дел, вопросы законности и обоснованности служебных решений, оценки профессиональных компетенций, а также взаимосвязи обучения и практики. Выявлены актуальные проблемы современного этапа и обоснованы предложения по внедрению нормативно-образовательного аудита, совершенствованию компетентностной оценки, мониторингу профессиональной деятельности выпускников и усилению связи научных разработок с практикой.

Ключевые слова: органы внутренних дел, народность, профессиональная подготовка, общественная безопасность, профессиональная компетентность, служебное решение, процессуальная справедливость, взаимодействие с населением, правовое качество, оценка эффективности.

A NEW STAGE IN THE DEVELOPMENT OF INTERNAL AFFAIRS BODIES: INTEGRATING PEOPLE-ORIENTED POLICING AND PROFESSIONAL TRAINING

Annotation. *The article examines the legal content of reforms implemented in the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan during 2016–2026 and their implications for public safety, cooperation with citizens, and professional training. Based on legal acts and academic sources, the study addresses contemporary requirements for people-oriented law enforcement, the legality and reasoned nature of operational decisions, professional competency assessment, and the relationship between education and field practice. The current challenges are identified, and proposals are substantiated concerning normative-educational auditing, competency-based assessment, longitudinal monitoring of graduates, and stronger integration of research findings into professional practice.*

Keywords: *internal affairs bodies, people-oriented policing, professional training, public safety, professional competence, operational decision-making, procedural justice, community cooperation, legal quality, impact evaluation.*

KIRISH

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni isloh qilish masalasi zamonaviy davlat boshqaruvida faqat tashkiliy optimallashtirish yoki vakolatlarni qayta taqsimlash bilan cheklanmaydi. Uning haqiqiy institutsional mazmuni davlatning fuqaroga munosabati, huquqni qo‘llashning legitimligi, xizmat qarorining asoslanganligi va professional javobgarlik standartlarida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda 2016-yildan keyin ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan islohotlar huquqiy maqomni aniqlashtirishdan boshlab, jamoat xavfsizligini kompleks boshqarish, mahalla kesimida manzilli ishlash, aholi bilan hamkorlik va kasbiy madaniyatni ustuvorlashtirishgacha bo‘lgan keng institutsional transformatsiyani qamrab oldi [1–10].

Mazkur transformatsiyaning ilmiy jihatdan murakkab tomoni shundaki, normativ-huquqiy hujjatda belgilangan yangi vazifa o‘z-o‘zidan xizmat amaliyotida sifat o‘zgarishini vujudga keltirmaydi. Huquqiy norma institutsional resurs, boshqaruv mexanizmi, kasbiy kompetensiya, pedagogik vosita va nazorat-baholash tizimi orqali real xatti-harakatga

aylangandagina islohot mazmunan amalga oshadi. Shu sababli islohot natijadorligini faqat qabul qilingan hujjatlar, tashkil etilgan tuzilmalar yoki raqamli platformalar soni bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Ilmiy tahlil normativ mandat bilan xizmat natijasi o‘rtasidagi oraliq mexanizmlarni ham ochib berishi kerak.

Mavzuning dolzarbligi ayniqsa hozirgi bosqichda kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ichki ishlar organlari faoliyatida professionalizm, aholi bilan ishonchga asoslangan munosabat, kasbiy madaniyat va xizmat intizomini yangicha institutsional mezon sifatida belgiladi[7]. 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror hamda 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror esa hududiy muammolarni manzilli, ilmiy va ma’lumotga tayangan holda o‘rganishga qo‘yiladigan talabni kuchaytirdi [8; 9].

Shu bilan birga, huquqni qo‘llash samaradorligi va professional tayyorgarlik o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash oson emas. Jinoyatchilik dinamikasi, fuqarolarning murojaatlari, xizmat intizomi yoki huquqiy xatolar ko‘plab tashqi va ichki omillarga bog‘liq. Demak, ta’lim yoki institutsional yangilanishning hissasini makroko‘rsatkich bilan bevosita tenglashtirish ilmiy jihatdan soddalashtirilgan xulosaga olib keladi. Bu maqola aynan shu metodologik muammodan kelib chiqadi.

Tadqiqotning maqsadi 2016–2026-yillarda ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan normativ-huquqiy va institutsional o‘zgarishlarni kasbiy transformatsiya nuqtai nazaridan tahlil qilish, amaldagi bosqichdagi asosiy institutsional uzilishlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida uchta savol qo‘yiladi: birinchidan, islohotlar ichki ishlar organlari xodimining kasbiy mandatini qaysi yo‘nalishlarda o‘zgartirdi; ikkinchidan, normativ yangilanishni real kasbiy kompetensiyaga aylantirishda qanday institutsional mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi; uchinchidan, hozirgi bosqichda normativ talab va o‘lchanadigan xizmat natijasi o‘rtasidagi qaysi uzilishlar islohotning keyingi samaradorligini cheklamoqda?

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, ichki ishlar organlaridagi so‘nggi o‘n yillik islohotlar normativ hujjatlar xronologiyasi sifatida emas, balki professional faoliyatni qayta konfiguratsiya qiluvchi institutsional jarayon sifatida talqin qilinadi. Shuningdek,

institutsional faollik, ta’lim mahsuloti, kasbiy kompetensiya, xizmat natijasi va ijtimoiy ta’sir o‘zaro farqlanadi; bu esa rasmiy faoliyat ko‘rsatkichlarini real ta’sir natijasi sifatida asossiz talqin qilishdan saqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi va nazariy asoslar

Tadqiqot hujjatli-institutsional sifat tahlili va normativ-huquqiy interpretatsiya metodlariga asoslanadi. Manbalar korpusiga ichki ishlar organlarining huquqiy maqomi, jamoat xavfsizligi, professional kadrlar tayyorlash, aholi bilan hamkorlik, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga bevosita taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar kiritildi [1–11]. Rasmiy institutsional materiallar esa mustaqil ta’sir bahosi sifatida emas, davlat organining o‘z faoliyatini qanday ifodalashi va qaysi tashkiliy yo‘nalishlarni ustuvor deb belgilashini ko‘rsatuvchi manba sifatida talqin qilindi [12–15].

Tahlil birligi sifatida besh kategoriya ajratildi: normativ mandat, institutsional mexanizm, kasbiy kompetensiya, bevosita faoliyat mahsuloti va ta’sir natijasi. Normativ mandat davlat tomonidan belgilangan vazifa va huquqiy talabni; institutsional mexanizm mazkur vazifani amalga oshirish uchun yaratilgan tashkiliy, ta’limiy yoki axborot vositasini; kasbiy kompetensiya xodimning bilim, ko‘nikma va huquqiy fikrlash qobiliyatini; bevosita mahsulot o‘quv dasturi, metodika, platforma, hujjat yoki tashkil etilgan jarayonni; ta’sir natijasi esa qaror sifati, fuqarolarning huquqiy himoyasi, ishonch, takroriy xavf va hududiy xavfsizlikdagi o‘zgarishni anglatadi. Mazkur differensiasiya tadqiqotning asosiy metodologik chegarasini belgilaydi.

Nazariy jihatdan tadqiqot muammoga yo‘naltirilgan policing, evidence-based policing, protsessual adolat, police legitimacy, knowledge translation va training transfer konsepsiyalariga tayanadi. H. Goldstein alohida hodisalarga reaktiv javob berishdan takrorlanuvchi muammolar va ularning sabablarini tahlil qilishga o‘tishni asoslagan [16]. L. Sherman huquqni muhofaza qilish qarorlarini «nima ishlaydi» degan tekshiriladigan ilmiy dalil bilan bog‘lash zaruratini ilgari surgan [17]. T. Tyler protsessual adolatni, ya’ni fuqaroni tinglash, betaraflik, hurmat va qaror sababini tushuntirishni davlat organi legitimligining mustaqil manbai sifatida ko‘rsatgan [18].

Professional ta’limning real amaliy natijaga o‘tishi ham alohida nazariy muammo hisoblanadi. Baldwin va Fordning training transfer modeli o‘quv natijasining ish joyiga ko‘chishi ta’lim oluvchining xususiyati, dastur dizayni va xizmat muhiti o‘rtasidagi uyg‘unlikka bog‘liqligini ko‘rsatadi [19]. Biggsning konstruktiv muvofiqlashtirish yondashuvi esa o‘quv natijasi, pedagogik metod va baholash vositasi o‘zaro bir maqsadga yo‘naltirilmasa, kompetensiya deklarativ darajada qolishini asoslaydi [20]. Shu sababli kasbiy

transformatsiya masalasini faqat normativ matn yoki o‘quv fanlari ro‘yxati bilan o‘lchash ilmiy jihatdan yetarli emas.

Tadqiqotning chegarasi ham ochiq e‘tirof etiladi. Ochiq manbalarda o‘quv dasturlarining barcha tarixiy tahrirlari, bitiruvchilarning xizmatdagi longitudinal natijalari, ma‘muriy materiallardagi xatolar dinamikasi, fuqarolarning anonim baholari yoki alohida metodikalarning hududiy ta‘sirini aniqlashga imkon beradigan to‘liq empirik ma‘lumotlar mavjud emas. Shu bois maqola ta‘lim yoki normativ islohot muayyan kriminologik natijani bevosita keltirib chiqargan degan sababiy da‘voni ilgari surmaydi.

Ichki ishlar organlaridagi islohotlarning huquqiy-institutsional mantig‘i

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi O‘RQ-407-son “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni ichki ishlar organlarining huquqiy maqomi, asosiy vazifalari, faoliyat prinsiplari, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir majburiyatlarini qonun darajasida tizimlashtirdi [1]. Ushbu huquqiy asosning konseptual ahamiyati shundaki, ichki ishlar organlari faoliyatini faqat majburlov vakolati bilan emas, qonuniylik, ochiqlik, hamkorlik va shaxs huquqlarini ta‘minlash bilan bog‘liq kompleks davlat funksiyasi sifatida belgilashga zamin yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mazkur huquqiy maqomni institutsional islohot dasturiga aylantirdi [2]. Hujjatda aholiga xizmat qilish, hududiy muammolarni bevosita joylarda aniqlash, mas‘uliyatni personallashtirish va professional faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan yondashuv kuchaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-son «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori islohotning ta‘limiy komponentini normativ jihatdan mustahkamladi [3]. Mazkur hujjat kasbiy ta‘limni xizmatdan oldingi tayyorgarlik bilan cheklamay, qayta tayyorlash, malaka oshirish, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish va ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘lashga qaratilgan tizimli yondashuvni belgiladi. Natijada professionalizm tushunchasi diplomga ega bo‘lishdan ko‘ra, xizmat davomida bilimni muntazam yangilab borish qobiliyati bilan bog‘lana boshladi.

Jamoat xavfsizligining kompleks modeli va professional mandatning kengayishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son «Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni

hududlar, mahalla, oila va shaxs kesimida muammolarni aniqlash, kuch va vositalarni muvofiqlashtirish, kriminogen vaziyatni differensial tahlil qilish yondashuvini kuchaytirdi [4]. Bu o‘zgarish xodimdan faqat normani bilishni emas, vaziyatni diagnostika qilish, xavf omillarini ajratish, boshqa subyektlar bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish va qarorning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni jamoat xavfsizligini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy choralarning kompleks tizimi bilan bog‘ladi [6]. Shu bilan ichki ishlar organlari xodimining professional profili tor ma‘muriy-yurisdiksiyaviy vazifadan ko‘p subyektki xavfsizlik boshqaruviga tomon kengaydi.

Mazkur tendensiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarorida yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi [7]. “Xalqchil professional tuzilma” kategoriyasi oddiy siyosiy shior sifatida emas, huquqni qo‘llash uslubiga nisbatan institutsional talab sifatida talqin qilinishi lozim. U professional bilim, kasbiy madaniyat, fuqaroga hurmat, xizmat intizomi, qarorning tushuntirilishi va aholi bilan hamkorlikni bir butun kasbiy standartga birlashtiradi. Demak, xizmat natijadorligi faqat huquqbuzarlik ko‘rsatkichlari yoki topshiriq ijrosi bilan emas, huquqiy va protsessual sifat bilan ham o‘lchanishi kerak.

Bu nuqtada protsessual adolat nazariyasi milliy islohotlarni tahlil qilish uchun muhim analitik vosita beradi. Fuqaro qaror natijasidan rozi bo‘lmasa ham, agar u tinglangan, betaraf munosabat ko‘rgan, hurmat qilingan va qarorning sababi tushuntirilgan bo‘lsa, davlat organining legitimligi saqlanishi mumkin [18]. Shuning uchun «xalqchilik» tushunchasini faqat fuqarolarga qulay xizmat ko‘rsatish bilan cheklash uning huquqiy mohiyatini toraytiradi; u qaror qabul qilish jarayonining adolatli va tushunarli bo‘lishini ham qamrab oladi.

2025–2026-yillarda manzilli va ilmiy asoslangan boshqaruvga o‘tish

2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qaror va 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qaror mahallalarda xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha ishlarni manzilli, subyektlararo va natijaga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga doir yangi talablarni mustahkamladi [8; 9]. Bu hujjatlarda muammolarni hududiy kesimda tahlil qilish, ilmiy tashkilot va ta‘lim muassasalarining salohiyatidan foydalanish, aniq mas‘uliyat va maqsadli choralarni belgilashga e‘tibor kuchaydi. Bunday normativ yo‘nalish ilmiy tahlilni xizmat amaliyotining periferik elementi emas, boshqaruv siklining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish uchun asos yaratadi.

Biroq «ilmiy yondashuv» atamasi normativ matnda qo‘llangani bilan uning metodologik mazmuni avtomatik ravishda ta‘minlanmaydi. Ilmiy asoslangan boshqaruv muammoni aniq

operatsion ta’riflash, tekshiriladigan ma’lumotdan foydalanish, sabab va korrelyatsiyani farqlash, tanlangan choraning huquqiy mutanosibligini baholash, bazaviy holatni belgilash va keyingi natijani o’lchashni talab qiladi. Aks holda “ilmiy-amaliy o’rganish” oddiy tavsifiy ma’lumotnoma shaklida qolib ketishi mumkin.

Shu sababli 2025-2026-yillardagi bosqichni islohotning miqdoriy kengayishi emas, uning epistemik sifatini o’zgartirishga qaratilgan bosqich sifatida baholash mumkin. Endi xizmat qarori faqat vakolat va topshiriqqa emas, ishonchli ma’lumot, tahliliy asos va natijani tekshirish mexanizmiga ham tayanishi kerak.

Kasbiy transformatsiyaning hozirgi muammolari

Birinchi muammo – normativ yangilanish va kompetensiya transformatsiyasi o’rtasidagi nomuvofiqlik. Qonunchilik tez yangilanayotgan sharoitda har bir yangi vazifa o’quv dasturiga alohida mavzu qo’shish orqali hal etilsa, ta’lim normativ axborot bilan ortiqcha yuklanadi. Ilmiy jihatdan to’g’ri yondashuv yangi normaning qaysi xizmat vaziyatini, qaror mezonini yoki xatti-harakat standartini o’zgartirganini aniqlashdir. Shunda normativ yangilik mazmuniy kompetensiyaga aylanadi.

Ikkinchi muammo – bilimni tekshirish bilan kompetensiyani baholashning aralashib ketishi. Test yoki nazariy savol norma mazmunini bilishni o’lchashi mumkin, biroq murakkab xizmat vaziyatida dalillarni tanlash, huquqiy kvalifikatsiya berish, mutanosib chorani belgilash, boshqa subyekt bilan hamkorlik qilish va qarorni fuqaroga tushuntirish qobiliyatini to’liq baholamaydi. Professional transformatsiya uchun baholashning obykti bilim hajmi emas, asoslangan kasbiy qaror bo’lishi kerak.

Uchinchi muammo – ta’lim natijasi bilan xizmat muhiti o’rtasidagi uzilish. Xodim ta’lim jarayonida protsessual adolat, dalillarga asoslangan qaror va huquqiy mutanosiblikni o’rgangan bo’lsa-da, xizmat muhitida faqat tezkor hisobot, sonli ko’rsatkich yoki norasmiy odat rag’batlantirilsa, o’rgangan kompetensiya barqarorlashmaydi. Training transfer nazariyasi aynan shu jihatni ko’rsatadi: ta’lim samarasi ish joyidagi rahbarlik, murabbiylik, vaqt, ma’lumot va tahliliy madaniyatga bog’liq [19].

To’rtinchi muammo – institutsional faoliyat bilan real ta’sirning bir xil ko’rsatkich sifatida talqin qilinishi. O’quv kursi o’tkazilishi, metodik qo’llanma yaratilishi, elektron tizim ishga tushirilishi yoki tadbirlar sonining ko’payishi zarur faoliyat mahsulotlaridir. Lekin ular xodimning qaror sifati yaxshilangani, fuqarolarning huquqiy himoyasi kuchaygani yoki hududiy xavf kamayganini o’z-o’zidan isbotlamaydi. Ilmiy baholashda resurs va jarayon indikatorlari natija va ta’sir indikatorlaridan qat’iy ajratilishi kerak.

Beshinchi muammo – raqamli transformatsiya bilan huquqiy javobgarlik o’rtasidagi muvozanat. O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O’RQ–547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonuni shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlashning

huquqiy chegaralarini belgilaydi [10]. Raqamli platforma yoki avtomatlashtirilgan tavsiya xodimga axborot berishi mumkin, ammo huquqiy qaror uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Shu sababli ma’lumotning manbasi, aniqligi, maqsadga muvofiqligi, zarur hajmda yig‘ilishi va inson tomonidan qayta tekshirilishi professional raqamli kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lishi kerak.

Oltinchi muammo – ta’sirni baholashning sababiy chegaralari yetarli e’tiborga olinmasligi. Hududdagi jinoyatchilik yoki huquqbuzarliklar dinamikasi iqtisodiy holat, demografiya, migratsiya, ro‘yxatga olish amaliyoti, ijtimoiy xizmatlar sifati va boshqa omillarga bog‘liq. Shu sababli umumiy statistik o‘zgarishni alohida ta’lim dasturi yoki institutsional bo‘linma faoliyati bilan bevosita bog‘lash ilmiy jihatdan asossiz. Ta’limga yaqinroq indikatorlar – huquqiy xatolar, qaytarilgan materiallar, murakkab vaziyatdagi qaror sifati, fuqaroga tushuntirish va hamkorlikka yo‘naltirish kompetensiyalaridir.

Ilmiy asoslangan takliflar va ularni amalga oshirish mexanizmlari

Birinchidan, ichki ishlar organlari tizimida doimiy normativ-o‘quv auditini institutsionallashtirish maqsadga muvofiq. Uning mazmuni har bir yangi qonun, Prezident hujjati yoki idoraviy normativ hujjat qabul qilinganda «qaysi xizmat vazifasi o‘zgardi – qaysi kompetensiya yangilanishi kerak – qaysi o‘quv moduli va baholash vositasiga ta’sir qiladi» degan uch bosqichli tahlilni majburiy o‘tkazishdan iborat bo‘lishi lozim. Bunday audit o‘quv dasturini normativ matnlar bilan mexanik to‘ldirishdan saqlaydi va huquqiy yangilikni kuzatiladigan kasbiy xatti-harakatga aylantiradi.

Ikkinchidan, kasbiy tayyorgarlikni baholashda kompetensiyaga asoslangan kompleks xizmat vaziyati modelini joriy etish zarur. Yakuniy baholashda xodim yoki kursant fuqarolar murojaatini qabul qilish, faktlarni ajratish, huquqiy asosni tanlash, xavfni baholash, tegishli hujjatni rasmiylashtirish, boshqa subyekt bilan hamkorlikni tashkil etish va qarorni tushuntirish ketma-ketligini bajarishi kerak. Baholash mezonlariga qonuniylik, dalilning yetarliligi, mutanosiblik, protsessual adolat, ma’lumotlar himoyasi va hujjat sifati kiritilishi lozim. Bu konstruktiv muvofiqlashtirish talabiga ham mos keladi [20].

Uchinchidan, bitiruvchilarning xizmatdagi dastlabki davrini 6, 12 va 36 oy oralig‘ida anonimlashtirilgan longitudinal monitoring qilish mexanizmini yaratish taklif etiladi. Monitoring individual jazolash vositasi emas, ta’lim dasturining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash instrumenti bo‘lishi kerak. Unda ma’muriy va protsessual hujjatlarning qaytarilishi, asoslangan shikoyatlar, murakkab vaziyatda qaror sifati, xizmat rahbarining strukturaviy bahosi, fuqarolar bilan muloqot va qo‘shimcha o‘quv ehtiyoji kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinishi mumkin.

To‘rtinchidan, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishning o‘zi emas, ularning implementatsiya sifati baholanishi kerak. Har bir amaliy ilmiy loyiha bo‘yicha muammo,

bazaviy holat, metod, синов hududi, indikatorlar, kutilgan va kutilmagan natijalar hamda keyingi qayta aloqa oldindan belgilanishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv ilmiy tavsiyani “joriy etildi” degan formal ma’lumotnomadan tekshiriladigan ilmiy-amaliy natijaga aylantiradi.

Beshinchidan, raqamli qarorlarni qabul qilish bilan bog‘liq professional standartni huquqiy kafolatlar bilan to‘ldirish zarur. Bunda shaxsga doir ma’lumotlarni minimallashtirish, ma’lumot manbasini tekshirish, noto‘g‘ri ma’lumotni tuzatish, avtomatlashtirilgan tavsiyani inson tomonidan qayta ko‘rib chiqish, qarorni tushuntirish va shikoyat qilish imkoniyatlari majburiy kompetensiya sifatida mustahkamlanishi kerak. Raqamlashtirishning maqsadi xodimning huquqiy tafakkurini almashtirish emas, uni sifatli ma’lumot bilan ta’minlashdir.

Oltinchidan, ichki ishlar organlari faoliyatini baholash tizimida protsessual sifat va fuqarolik legitimligini mustaqil mezon sifatida kuchaytirish lozim. Statistik natija, xizmat intizomi va tezkorlik bilan bir qatorda fuqaroni tinglash, qarorning sababi va huquqiy oqibatini tushuntirish, shaxsiy qadr-qimmatga hurmat, huquqlarni tushuntirish va shikoyat mexanizmining amaldagi ishlashi ham sifat mezonlari qatoriga kirishi kerak. Bu yondashuv «xalqchil professional tuzilma» g‘oyasiga huquqiy-operatsion mazmun beradi.

Yettinchidan, 2025–2026-yillarda mahallalarda xavfsiz muhit yaratishga oid vazifalarning ilmiy komponentini standartlashtirish zarur. Ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasasining hududiy muammoni o‘rganishi oldindan belgilangan metodik protokol asosida tashkil etilishi, unda muammo ta’rifi, ma’lumot manbasi, sabablar gipotezasi, huquqiy cheklovlar, aralashuv varianti va natijani qayta o‘lchash mezonlari ko‘rsatilishi lozim. Aks holda ilmiy ishtirok bilan ma’muriy monitoring o‘rtasidagi farq yo‘qoladi.

Muhokama

O‘tkazilgan tahlil ichki ishlar organlaridagi islohotlarning keyingi bosqichida asosiy masala yangi institutlar sonini ko‘paytirish emas, mavjud normativ va tashkiliy imkoniyatlarning kasbiy ta’sirini isbotlash ekanini ko‘rsatadi. Bu xulosa zamonaviy policing tadqiqotlaridagi umumiy tendensiya bilan hamohang: tashkilotning o‘zgarishi faqat strukturaviy dizayn bilan emas, professional xatti-harakat, qaror qabul qilish sifati va tashkilot madaniyati orqali namoyon bo‘ladi [16–18].

Shu nuqtai nazardan, «xalqchil professional tuzilma» konsepsiyasini ikki o‘lchovda talqin qilish maqsadga muvofiq. Birinchi o‘lchov – institutsional legitimlik: ichki ishlar organining huquqiy vakolati, ochiqqligi, hisobdorligi va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilganligi. Ikkinchi o‘lchov – professional legitimlik: xodimning individual qarori huquqiy, asoslangan, mutanosib, tushunarli va inson qadr-qimmatiga hurmatli bo‘lishi.

Birinchisi ikkinchisiz formal institutga, ikkinchisi birinchisiz esa individual mahoratga aylanib qoladi. Barqaror islohot ularning o‘zaro integratsiyasini talab qiladi.

Maqolada taklif etilgan normativ-o‘quv audit va longitudinal monitoring mexanizmlari aynan mana shu integratsiyani tekshirish imkonini beradi. Bunda natijani baholashda yagona umumiy ko‘rsatkichdan ehtiyot bo‘lish lozim. Masalan, huquqbuzarliklar sonining kamayishi huquqiy xatolar ko‘payishini oqlamasligi, tezkorlik fuqaroni tinglamaslik yoki ma’lumotlarni ortiqcha yig‘ish hisobiga ta’minlanmasligi kerak. Shuning uchun samaradorlik va legitimlik parallel baholanishi lozim.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy yangilanishlarning yuqori sur’ati professional ta’lim va xizmat standartlarida “institutsional kechikish”ni keltirib chiqarishi mumkin. Yangi normaning hujjatda paydo bo‘lishi bilan uni tushunadigan, qo‘llay oladigan va baholay oladigan professional kompetensiya shakllanishi o‘rtasida vaqt tafovuti mavjud. Kelgusida aynan ushbu tafovutni o‘lchash, ya’ni huquqiy yangilikning o‘quv dasturi, metodika va xizmat amaliyotiga kirib borish tezligini empirik baholash alohida tadqiqot yo‘nalishi bo‘lishi mumkin.

Xulosa

1. 2016-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlaridagi islohotlar tizimning huquqiy maqomi va tashkiliy tuzilishini yangilash bilan cheklanmay, professional faoliyat falsafasini ham o‘zgartirishga qaratildi. Islohotning mazmuniy vektori reaktiv huquqni qo‘llashdan muammoni barvaqt aniqlash, alohida idoraviy harakatdan ko‘p subyektli hamkorlik, formal vakolatdan protsessual adolat va aholi ishonchiga yo‘naltirilgan professionalizm tomon siljidi.

2. Hozirgi bosqichdagi asosiy ilmiy muammo normativ yangilanishning mavjud emasligi emas, uning kasbiy kompetensiya va o‘lchanadigan xizmat natijasiga to‘liq transformatsiya qilinishidir. Normativ mandat bilan amaliy natija o‘rtasida ta’lim mazmuni, baholash, xizmat muhiti, rahbarlik madaniyati, ma’lumot sifati va qayta aloqa kabi oraliq bo‘g‘inlar mavjud. Ularni e’tibordan chetda qoldirish islohot natijasini formal faoliyat ko‘rsatkichlari bilan almashtirish xavfini tug‘diradi.

3. Shu asosda normativ-o‘quv auditini joriy etish, kasbiy kompetensiyani kompleks xizmat vaziyati orqali baholash, bitiruvchilarni 6, 12 va 36 oylik longitudinal kuzatish, ilmiy ishlanmalar implementatsiyasini metodologik protokol asosida tekshirish, raqamli qarorlarda inson nazorati va shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish ilmiy-amaliy jihatdan asosli yo‘nalishlar sifatida taklif etildi.

4. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, mazkur takliflar ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish islohotini hujjatlar va tashkiliy choralar darajasidan professional xatti-harakat, huquqiy sifat va fuqarolar tajribasi darajasida baholash

imkonini beradi. Shu bilan birga, ochiq empirik ma'lumotlarning cheklanganligi sababli maqola islohotlarning muayyan kriminologik natijaga bevosita sabab bo'lganini da'vo qilmaydi. Keyingi tadqiqotlar ta'lim dasturlari qiyosi, kompetensiya baholari, xizmat hujjatlari sifati, fuqarolar tajribasi va bitiruvchilar monitoringini birlashtirgan empirik dizayn asosida olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi O'RQ-407-son «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-3027843>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-3159827>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-son «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-3313218>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-5344118>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076-son «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-5377619>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-5749291>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son «Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6364837>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-7330260>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ–1-son «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-7973611>

10. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ–547-son «Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4396419>

11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirda qabul qilingan // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>

12. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Vazirlik tarixi: «Bosh maqsad — xalq manfaatlariga xizmat qilish (2016-yildan hozirga qadar)» // Rasmiy veb-sayt. URL: <https://gov.uz/uz/iiv/pages/vazirlik-tarixi>

13. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Ichki ishlar tizimini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha erishilgan natijalar. 09.07.2026 // Rasmiy veb-sayt. URL: <https://gov.uz/uz/iiv/sections/view/180091>

14. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Akademiyaning huquqiy maqomi, maqsadi va vazifalari // Rasmiy veb-sayt. URL: <https://akadmvd.uz/uz/menu/pravovoj-status-tseli-i-zadachi-akademii>

15. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası // Rasmiy veb-sayt. URL: <https://akadmvd.uz/uz/menu/kafedra-dejatelnosti-po-profilaktike-pravonarushenij>

16. Goldstein H. Improving Policing: A Problem-Oriented Approach // Crime & Delinquency. 1979. Vol. 25, No. 2. P. 236–258. DOI: 10.1177/001112877902500207.

17. Sherman L. W. Evidence-Based Policing. Washington, DC: Police Foundation, 1998.

18. Tyler T. R. Enhancing Police Legitimacy // The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science. 2004. Vol. 593, No. 1. P. 84–99. DOI: 10.1177/0002716203262627.

19. Baldwin T. T., Ford J. K. Transfer of Training: A Review and Directions for Future Research // Personnel Psychology. 1988. Vol. 41, No. 1. P. 63–105. DOI: 10.1111/j.1744-6570.1988.tb00632.x.

20. Biggs J. Enhancing Teaching through Constructive Alignment // Higher Education. 1996. Vol. 32. P. 347–364. DOI: 10.1007/BF00138871.
21. Hinkle J. C., Weisburd D., Telep C. W., Petersen K. Problem-Oriented Policing for Reducing Crime and Disorder: An Updated Systematic Review and Meta-Analysis // Campbell Systematic Reviews. 2020. Vol. 16, No. 2. e1089. DOI: 10.1002/cl2.1089.
22. McGinley B., Agnew-Pauley W., Tompson L., Belur J. Police Recruit Training Programmes: A Systematic Map of Research Literature // Policing: A Journal of Policy and Practice. 2020. Vol. 14, No. 1. P. 52–75. DOI: 10.1093/police/paz019.
23. Brown J., McDowall A., Gamblin D., Fenn L. Assessing Transmission and Translation of Learning about Evidence-Based Policing by Graduate Trainee Police Officers // Policing: A Journal of Policy and Practice. 2020. Vol. 14, No. 1. P. 119–134. DOI: 10.1093/police/pay072.
24. Weisburd D., Telep C. W., Vovak H., Zastrow T., Braga A. A., Turchan B. Reforming the Police through Procedural Justice Training: A Multicity Randomized Trial at Crime Hot Spots // Proceedings of the National Academy of Sciences. 2022. Vol. 119, No. 14. e2118780119. DOI: 10.1073/pnas.2118780119.
25. Bonadies T., Herbert J. Recalling Responses: A RCT on Police Learning and Knowledge Retention // Policing: A Journal of Policy and Practice. 2023. Vol. 17. paac110. DOI: 10.1093/police/paac110.
26. Frade B., Walsh J. P. Police Education and Training: A Scoping Review of the Research Literature // The Police Journal. 2026. OnlineFirst. DOI: 10.1177/0032258X261418852.